

“Yer xazina – tomorqa bebaho boylik” tadbirlarida faol ishtirok etaylik!

✘ Dunyo miqyosida koronavirus infeksiyasi keng tarqalib borayotgan bir sharoitda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev biz – yoshlarni ham qo'llab-quvvatlamogda. Xususan, davlatimiz rahbari xalqimizga murojaatida “Men bugungi kunda uy sharoitida tahsil olayotgan talaba va o'quvchi yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman: Aziz farzandlarim, uyda vaqtingizni bekor o'tkazmang! Onlayn darslarni qunt bilan o'zlashtiring. Kitob o'qing, bilimingizni oshiring, badantarbiya va jismoniy mashqlarni bir kun ham qoldirmang” deya ta'kidladi.

Bu chaqiriq barcha yoshlarni tushkun kayfiyatga berilmasdan, o'qish va izlanishga chorladi, zo'r qudrat, ilhom berdi. Prezidentimiz bizdan tashabbuskorlik, hamjihatlik, kelajakka bo'lgan ishonchni yanada oshirib, intilish va bilim olishni, mehnat qilishni, kichiklarga o'rnak bo'lib, kattalardan hayotiy bilimlarni o'rganishimizni so'ramogda.

Sir emas, bugun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Shu bois, davlatimiz rahbari 8 aprely kuni koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashishda joylardagi ishlar natijadorligi tahlili hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi bandligi va daromadini oshirishning muhim manbai bo'lgan tomorqachilikni rivojlantirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida aholini o'z tomorqasidan unumli foydalanishga chaqirdi.

Aziz tengdoshlar, hurmatli yoshlar!

Shunday ekan, onlayn darslarni mukammal o'zlashtirib, karantin qoidalariga qat'iy amal qilgan holda o'zimiz istiqomat qilayotgan qishloqda, oilamiz tomorqasida meva-sabzavot va poliz ekinlari ekish ishlariga faol ko'maklashaylik! Bu bilan, avvalo, oilamiz, xalqimiz dasturxonini farovonligiga ko'maklashamiz, o'z navbatida, jismoniy chiniqib, faolligimiz oshadi. Shuningdek, ustozlardan olgan saboqlarni amaliyotga joriy etish va muntazam ravishda onlayn maslahatlar olib borish imkoniga ega bo'lamiz. Shu jarayonda ziyoli qatlamning bo'lajak vakili sifatida tomorqa ekinlarini ekish va yetishtirishda mamlakatimiz tomonidan joriy etilayotgan imtiyozlar va preferentsiyalar bilan aholini tanishtirib borishga hissa qo'shaylik. Bir so'z bilan aytganda, “Er xazina – tomorqa bebaho boylik” tadbirlarida faol ishtirok etib, har birimiz namuna bo'lishga erishaylik. Mavjud vaziyatdan kelib chiqib, ota-onalarimiz oldida turib, tomorqada ish tashkil qilishni va samarali foyda olishni yuqori darajaga ko'taraylik, shaxsiy o'rnak ko'rsataylik, faollikni namoyon qilaylik.

Albatta, “Sog'lom tanda – sog' aql” shiori bilan birlashib, Prezidentimiz g'oyalariga sadoqatimizni namoyon etaylik. Ayniqsa, bu jarayonda qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari tashabbuskor va oldingi safda turishi kerak. Aziz do'stlar, yana bir bor barchangizga sog'lik-salomatlik tilaymiz. Yurtimizdan bu sinovli kunlar tezroq tugashiga va qiyinchiliklarni uyda qolib, sabr bilan yengib o'tishimizga ishonamiz. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida yanada mas'uliyatli va faol bo'lishingizni so'raymiz.

**Yoshlar ittifoqining Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti boshlang'ich tashkiloti
talabalar kengashi.**